XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-21-112-2-0-K/25 Buxoro viloyati

Buxoro viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, Oʻzbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi OʻRQ-1105-sonli Qonuniga muvofiq, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi OʻRQ-1105-sonli Qonuni *(keyingi oʻrinlarda Qonun deb yuritiladi)* ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq, Buxoro viloyati mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **5 107,4 mlrd.soʻm** va xarajatlari **6 129,8 mlrd.soʻmga** maʼlumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **1 022,4 mlrd.soʻm** miqdorida, shundan aksiz soligʻi tushumlari hisobidan ajratiladigan transfertlar **196,1 mlrd.soʻm** miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Buxoro viloyatining 2026-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz koʻrsatkichlari hamda 2027-2028-yilga moʻljallari **1-ilovaga;**

Buxoro viloyatining viloyat mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz koʻrsatkichlari **2-ilovaga**;

viloyatning viloyat budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilovaga;**

2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari **4-ilovaga**;

Bunda, mazkur qaror qabul qilingandan so‘ng bir kun muddatda tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari bo‘yicha viloyatning viloyat budjeti bilan tumanlar va shaharlar budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimiga” Buxoro viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin.

shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2026-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi **5-ilovaga** muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Viloyatning viloyat budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining 2026-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **13,6 mlrd. so‘m** etib hamda tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **6-ilovaga** muvofiq belgilansin.

5. Viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **34,3 mlrd.so‘m** miqdorida belgilansin.

2026-yil uchun Buxoro viloyatning viloyat budjeti, tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining *(bundan tumanlar va shaharlar budjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno)* kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

Bunda tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari miqdori oldingi yildagi hajmidan kam bo‘lmagan miqdorda shakllantirilishi hamda qo‘shimcha mablag‘larni shakllantirish viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg‘armalari mablag‘larini kamaytirish hisobidan amalga oshirilganligi inobatga olinsin.

6. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari B.Axmedov, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (H.Qilichov), viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjet uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Tuman va shahar hokimliklari, mas’ul boshqarma va tashkilotlar 2026-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

8. Viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev)ga tuman va shahar soliq organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish topshirilsin.

9. Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi (O.Mardonov), viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni ko‘rsin.

10. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (F.Norov)ga Bo‘sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash topshirilsin.

11. Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari Havza boshqarmasi (E.Fayzillayev) va viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev)ga tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

12. Viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev), viloyat qishloq xoʻjaligi boshqarmasi (A.Javodov) tuman (shahar) hokimlarining birinchi oʻrinbosarlari bilan hamkorlikda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi 709-sonli qaroriga asosan qishloq xoʻjaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qoʻshimcha toʻlov summalarini belgilangan grafiklarga muvofiq mahalliy budjetlarga undirish choralarini koʻrsinlar.

13. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari hamda tuman (shahar) hokimliklari Oʻzbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamgʻarmalariga tushumlar toʻliq va oʻz vaqtida tushishi hamda budjet mablagʻlarining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat oʻrnatsinlar.

14. Hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablagʻlarining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari viloyat Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilar:

oʻz tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish;

oʻzlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining toʻgʻri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablagʻlarning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning toʻliq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablagʻlarning toʻgʻri taqsimlanishi;

budjetdan ajratilgan mablagʻlardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni toʻliq rejalashtirilishi va oʻz vaqtida toʻlanishini;

budjet jarayonining ochiqligini taʼminlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda maʼlumotlarni joylashtirib borilishini taʼminlasinlar.

15. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi viloyati boshqarmasi (M.Abdiyev) budjetdan ajratilgan mablagʻlarning maqsadli ishlatilishi nazorat qilinishini hamda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot kiritib borilishini taʼminlasin.

16. Viloyat hokimligi axborot xizmati, viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev), iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (H.Qilichov) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan

ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlar e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

17. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

18. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ASHUROV JAMOL RAJABBOYEVICH**

Xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-112-2-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Buxoro viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari prognozi va 2027-2028-yillarga maqsadli moʻljallari

№	Koʻrsatkichlar	2026-yil uchun prognoz	Moʻljal	
			2027-yil	2028-yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.soʻm	94 943,7	107 645,8	121 221,1
2.	Yalpi hududiy mahsulotning oʻsish surʼati, foizda	106,4	106,2	106,0
3.	Isteʼmol narxlari indeksi, dekabr oyida avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	107,5	106,5	106,0
4.	Sanoat mahsulotlarining oʻsish surʼati, foizda	106,5	106,5	106,4
5.	Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaliklarida ishlab chiqarishning oʻsish surʼati, foizda	104,1	104,2	104,2
6.	Bozor xizmatlari hajmi oʼsish surʼati, foizda	113,2	113,4	113,5

Xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-112-2-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Buxoro viloyatining viloyat mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz koʻrsatkichlari

ming soʻm

T/R	Daromad turlari	Kontingent reja*	Mahalliy reja
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	328 865 000,0	326 381 900,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	0,0	0,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 421 554 000,0	1 636 812 460,0
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1 137 718 000,0	192 674 190,0
5	Aksiz solig‘i, jami	417 061 000,0	359 580 495,0
	shu jumladan:		
	- alkogol mahsulotlaridan soliq	*95 557 000,0*	*28 667 100,0*
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*321 504 000,0*	*330 913 395,0*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	95 569 000,0	234 799 500,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0,0	0,0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	201 993 000,0	210 591 560,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	0,0	0,0
10	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	16 503 000,0	0,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	72 812 000,0	0,0
12	Davlat boji	190 129 000,0	148 193 610,0
13	Jarimalar	151 681 000,0	129 266 610,0
14	Ijara to‘lovi	0,0	0,0
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	2 078 000,0	0,0
16	Yig‘imlar	96 735 000,0	62 915 230,0
17	Xususiylashtirish	0,0	0,0
18	Boshqalar	0,0	0,0
JAMI		**4 132 698 000,0**	**3 301 215 555,0**
19	Respublika budjetidan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar		1 022 385 100,0

	shundan, tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig‘idan		*196 083 000,0*
HAMMASI		**4 132 698 000,0**	**4 323 600 655,0**

** viloyat soliq boshqarmasining kontingent daromadlar rejasi.*

Xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-112-2-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Viloyatning viloyat budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming.soʻm

№	Hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**4 323 600 655**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 123 854 037**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	199 746 618
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	**0**
1	**Maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi**	**311 494 285**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**171 347 667**
	shundan:	
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	140 146 618
2	**Kasbiy ta'lim agentligining hududiy boshqarmasi**	**251 304 182**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**251 304 182**
	shundan:	
	Kasbiy ta'lim agentligining hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	2 447 938
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
3	**Sogʻliqni saqlash boshqarmasi**	**207 595 221**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**158 895 221**
	shundan:	
	Viloyat sogʻliqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	9 084 136
	Respublika oʻrta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	3 058 075
	Sogʻlikni saqlash boshqarmasi kutubxonasi	493 802

	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	48 700 000
4	**Madaniyat boshqarmasi**	**73 940 457**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**73 940 457**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
5	**Maʼnaviyat va maʼrifat markazi**	**3 421 524**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 421 524**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
6	**Sport boshqarmasi**	**157 028 547**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**157 028 547**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
7	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi**	**3 706 995**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 706 995**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
8	**Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi boshqarmasi**	**12 656 525**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**12 656 525**
	shundan:	
	Koʻp kvartirali uylardagi lift uskunalarini taʼmirlash va yangilash xarajatli	1 650 000
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
9	**Qishloq xoʻjaligi boshqarmasi**	**40 089 100**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**40 089 100**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
10	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**99 267 083**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**88 767 083**
	shundan:	
	Sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	37 400 000
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	10 500 000
11	**Transport boshqarmasi**	**1 609 159**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 609 159**

	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
12	**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi boshqarmasi**	**51 477 762**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**51 477 762**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
13	**Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**2 448 752 110**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 448 752 110**
	shundan:	
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakasizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	10 000 000
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	2 500 000
	Budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	13 367 539
	Gʻaznachilik xizmati qoʻmitasining hududiy boshqarmasi	6 641 071
	Kadastr agentligi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	2 731 285
	Issiqlik taʼminoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qoʻllash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	108 133 255
	Tibbiy sugʻurta jamgʻarmasiga oʻtkaziladigan transfertlar	2 293 605 182
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
14	**Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi**	**2 005 468**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 005 468**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
15	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**1 802 829**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 802 829**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
16	**Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**9 723 369**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**9 723 369**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
17	**Investisiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**8 210 428**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**8 210 428**

	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
18	**Adliya boshqarmasi**	**15 834 055**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**15 834 055**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
19	**Soliq boshqarmasi**	**92 259 753**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**92 259 753**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
20	**Viloyat hokimligi**	**454 288 106**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**453 888 106**
	shundan:	
	Viloyat hokimligi huzuridagi tomorqa sugʻorish markazi Davlat muassasi	348 772
	Fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish oʻquv kursi	484 087
	Zaxira jamgʻarmasi	34 290 194
	Xalqaro moliyaviy institutlardan Oʻzbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar boʻyicha toʻlovlar	72 373 531
	Oʻzoq muddatli budjet ssudasi	79 800 000
	Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar boʻyicha asosiy toʻlovlar	234 465 894
	Avtobus yoʻnalishlarini subsidiyalash	800 000
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	400 000
21	**Turizm qoʻmitasi viloyat boshqarmasi**	**3 480 245**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 480 245**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
22	**Viloyat hokimligi (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi tashkilotlar)**	**20 182 870**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**20 182 870**
	shundan:	
	Qabul uylarini saqlash xarajatlari	8 659 359
	Axborot-kutubxona markazlari	3 512 309
	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	8 011 202
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
23	**Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari**	**9 913 337**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**9 913 337**
	shundan:	
	joriy xarajatlar	4 795 783
	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash jamoat fondi	5 117 554
24	**Agrosanoat majmui ustidan nazorat kilish inspeksiyasining hududiy viloyat boshkarmasi**	**8 901 817**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**8 901 817**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
25	**Ichki ishlar boshqarmasi**	**19 003 787**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**19 003 787**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
26	**Mudofaa ishlari boshqarmasi**	**4 328 970**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 328 970**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
27	**Oila va xotin-qizlar qoʻmitasinining hududiy boshqramasi**	**6 496 833**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 496 833**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
28	**Boshqa tashkilotlar**	**4 825 838**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 825 838**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	

Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-112-2-0-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				Pivo			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Buxoro shahri	0%	3%	20%	17%	0%	5%	100%	95%	100%	100%	0%	0%	0%	10%	100%	90%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%
2	Kogon shahri	0%	12%	20%	8%	0%	61%	100%	39%	100%	100%	0%	0%	0%	60%	100%	40%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%
3	Olot tumani	0%	11%	20%	9%	0%	55%	100%	45%	100%	100%	0%	0%	0%	55%	100%	45%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%
4	Buxoro tumani	0%	4%	20%	16%	0%	21%	100%	79%	100%	100%	0%	0%	0%	18%	100%	82%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%
5	Vobkent tumani	0%	12%	20%	8%	0%	59%	100%	41%	100%	100%	0%	0%	0%	59%	100%	41%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%
6	G‘ijduvon tumani	0%	4%	20%	16%	0%	20%	100%	80%	100%	100%	0%	0%	0%	20%	100%	80%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%
7	Kogon tumani	0%	2%	20%	18%	0%	9%	100%	91%	100%	100%	0%	0%	0%	11%	100%	89%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%
8	Qorako‘l tumani	0%	8%	20%	12%	0%	38%	100%	62%	100%	100%	0%	0%	0%	43%	100%	57%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%
9	Qorovulbozor tumani	0%	15%	20%	5%	0%	76%	100%	24%	100%	100%	0%	0%	0%	75%	100%	25%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%
10	Peshku tumani	0%	14%	20%	6%	0%	75%	100%	25%	100%	100%	0%	0%	0%	70%	100%	30%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%
11	Romitan tumani	0%	9%	20%	11%	0%	45%	100%	55%	100%	100%	0%	0%	0%	45%	100%	55%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%
12	Jondor tumani	0%	11%	20%	9%	0%	57%	100%	43%	100%	100%	0%	0%	0%	59%	100%	41%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%
13	Shofirkon tumani	0%	12%	20%	8%	0%	60%	100%	40%	100%	100%	0%	0%	0%	55%	100%	45%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%

№	Hududlar nomi	benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i				Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo'yicha dividendlar			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga					
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Buxoro shahri	0%	0%	100%	100%	0%	25%	100%	75%	0%	25%	100%	75%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%				
2	Kogon shahri	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%				
3	Olot tumani	0%	30%	100%	70%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%				
4	Buxoro tumani	0%	20%	100%	80%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%				
5	Vobkent tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%				
6	G'ijduvon tumani	0%	31%	100%	69%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%				
7	Kogon tumani	0%	10%	100%	90%	0%	100%	100%	0%	0%	97%	100%	3%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%				
8	Qorako'l tumani	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%				
9	Qorovulbozor tumani	0%	75%	100%	25%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%				
10	Peshku tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%				
11	Romitan tumani	0%	29%	100%	71%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%				
12	Jondor tumani	0%	64%	100%	36%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%				
13	Shofirkon tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%				

№	Hududlar nomi	Aylanmadan soliq		Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i		Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i		Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy miqdorda belgilangan soliq		Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari		Davlat boji		Jarima		Yig'imlar	
		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
1	Buxoro shahri	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	6%	94%	6%	94%	5%	95%
2	Kogon shahri	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	35%	65%	35%	65%	35%	65%
3	Olot tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	20%	80%	20%	80%	20%	80%
4	Buxoro tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	10%	90%	10%	90%	10%	90%
5	Vobkent tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	22%	78%	22%	78%	22%	78%
6	G'ijduvon tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	20%	80%	20%	80%	20%	80%
7	Kogon tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	5%	95%	5%	95%	5%	95%
8	Qorako'l tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	28%	72%	28%	72%	28%	72%
9	Qorovulbozor tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	10%	90%	10%	90%	10%	90%
10	Peshku tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	25%	75%	25%	75%	25%	75%
11	Romitan tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	20%	80%	20%	80%	20%	80%
12	Jondor tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	20%	80%	20%	80%	20%	80%
13	Shofirkon tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	16%	84%	16%	84%	16%	84%

Izoh: *1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha 3111600 daromad kodiga tushadigan mablag'lar to'liq tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga yo'naltiriladi;*

2. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 3141103 daromad kodiga tushgan mablag'larning 20 foizi to'liq viloyat budjetiga yo'naltiriladi.

3. Jarimalar (3 430 103), davlat boji (3 422 103) va yig'imlar (3 422 203) bo'yicha tushumlar to'liq tegishli tumanlar va shaharlarlar mahalliy bdjetlariga yo'naltiriladi;

4. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar (3510300) hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag'lari (3510810) tuman (shahar)lar hamda viloyat budjeti o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

5. Boshqa tushumlar alohida Hukumat qarorlari bilan belgilangan me'yorlarga asosan taqsimlanadi.

Xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-112-2-0-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2026-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming.soʻmda

Budjetlar nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**1 806 162 745,0**	**1 806 162 745,0**
Buxoro shahri	263 951 587	263 951 587
Kogon shahri	79 034 843	79 034 843
Olot tumani	108 598 649	108 598 649
Buxoro tumani	125 888 452	125 888 452
Vobkent tumani	138 595 106	138 595 106
Gʻijduvon tumani	192 208 190	192 208 190
Kogon tumani	88 824 378	88 824 378
Qorakoʻl tumani	153 881 975	153 881 975
Qorovulbozor tumani	83 071 836	83 071 836
Peshku tumani	150 988 142	150 988 142
Romitan tumani	131 666 859	131 666 859
Jondor tumani	143 598 485	143 598 485
Shofirkon tumani	145 854 243	145 854 243

Xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-112-2-0-K/25 -son qaroriga
6-ilova

2026-yilda viloyat, shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining shaxsiy gʻazna hisobvaraqlarida turgan budjet mablagʻlarining yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdorlari

ming soʻmda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**29 000 000,0**
	shundan	
1	Viloyat budjeti	13 576 000,0
2	Buxoro shahri	2 344 000,0
3	Kogon shahri	762 000,0
4	Olot tumani	989 000,0
5	Buxoro tumani	993 000,0
6	Vobkent tumani	1 077 000,0
7	Gʻijduvon tumani	1 531 000,0
8	Kogon tumani	812 000,0
9	Qorakoʻl tumani	1 313 000,0
10	Qorovulbozor tumani	823 000,0
11	Peshku tumani	1 110 000,0
12	Romitan tumani	1 137 000,0
13	Jondor tumani	1 243 000,0

14	Shofirkon tumani	1 290 000,0